

## Shavkat Mirziyoyev Raqamli hukumat ofisi bilan tanishdi



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Bosh vaziri Asqar Mamin hamrohligida Nur-Sulton shahridagi EXPO ishbilarmonlik markazida joylashgan Raqamli hukumat ofisiga tashrif buyurdi.

Ushbu muassasa joriy yil sentyabr oyida ochilgan. Uning tarkibiga Milliy tahlil markazi, Raqamli transformatsiya markazi va Milliy loyiha ofisi kiradi.

Davlatimiz rahbari situatsion markaz imkoniyatlari bilan ham tanishdi. Markaz barcha ma'lumotlar bazalariga ulanadi va hududlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi, bu esa real vaziyatni onlayn ravishda ko'rish, masalan, mamlakatda emlash sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kuzatib borish imkonini beradi.

Ichki va tashqi savdo bo'yicha tahliliy platforma imkoniyatlari namoyish qilindi. Uning yordamida oziq-ovqat narxlarini onlayn ravishda monitoring qilish va narx-navoning prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, ofis negizida innovatsiyalar va aerokosmik sanoat sohalaridagi loyihalar ishga tushiriladi.

Ofis mutasaddisi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, IT-parklar tashkil etish, dasturchilar tayyorlash, davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatish bo'yicha qilinayotgan ishlarni e'tirof etib, Qozog'iston ham shu yo'ldan borayotganini aytdi.

Davlatimiz rahbari bu sohada tajriba almashish, davlat xizmatlari sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, har bir hayotiy vaziyatni tahlil qilib, odamlarga qulaylik yaratish muhimligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga davlat tashrifi yakunlandi.







